

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

AHOLI SALOMATLIGI VA MILLAT GENOFONDINI GIYOHVANDLIK
VA NARKOJINOYATLARDAN SAMARALI HIMOYA QILISH BO‘YICHA
KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024-2028-yillarga mo‘ljallangan milliy strategiyaning ustuvor maqsadlariga erishish, giyohvandlik va uyushgan narkojinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish orqali aholini, birinchi navbatda, yoshlar salomatligini hamda millat genofondini samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash maqsadida **qaror qilaman:**

I. Maqsadlar va ustuvor vazifalar

Quyidagilar ushbu Farmonning asosiy maqsadlari etib belgilansin:

a) O‘zbekiston aholisining salomatligi va millat genofondiga jiddiy tahdid solayotgan **giyohvandlik illatiga qarshi kurashish** hamda bunga sabab bo‘layotgan **uyushgan narkojinoyatchilikka chek** qo‘yishga qaratilgan normativ-huquqiy, tekzor-profilaktik va tashkiliy-tarbiyaviy choralar kompleksini belgilash;

b) **voyaga yetmaganlar va yoshlarimiz kelajagini** giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan **har tomonlama asrash** — barcha darajadagi davlat organlari, tashkilotlari va muassasalarining **dolzarb vazifasi** ekanini alohida qayd etish hamda ularning bu boradagi **mas’uliyatini tubdan oshirish**.

2. Quyidagilar giyohvandlik va narkojinoyatlarning barvaqt oldini olish hamda ularga qarshi keskin kurashish faoliyatini amalga oshirishga mas’ul davlat organlari va tashkilotlarining **ustuvor vazifalari** etib belgilansin:

a) ta’lim muassasalarida, **o‘quvchi va talabalar** orasida psixofaol moddalarning tarqalishiga **batamom chek qo‘yish, yoshlarda** giyohvandlik illatiga **murossasiz munosabotni shakllantirish** bo‘yicha **ta’sirchan chora-tadbirlarni kompleks ravishda** amalga oshirish;

b) giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar (keyingi o‘rinlarda — giyohvandlik vositalari) noqonuniy aylanmasiga **qat’iy jinoiy-huquqiy mexanizmlar** orqali **barham berish**, bu boradagi jazo choralarini **keskin kuchaytirish** hamda **yoshlarga nisbatan** sodir etiladigan narkojinoyatlar uchun **javobgarlikni og‘irlashtirish**;

v) giyohvandlik vositalarini respublika chegarasidan olib kirish yo‘nalishlarini, **internet tarmoqlari** orqali tarqatish harakatlarini, **noqonuniy narkolaboratoriyalarni** va narkojinoiy uyushmalarni, shu jumladan, ularga **homiylilik (rahnamolik)** qilayotgan mansabdor shaxslarni aniqlash, ular faoliyatiga chek qo‘yish hamda jazo muqarrarligini ta’minlashga qaratilgan **keng qamrovli tekzor-qidiruv va tergov faoliyatini** yo‘lga qo‘yish;

g) giyohvandlik vositalarini tayyorlash uchun foydalanish mumkin bo‘lgan **kimyoviy moddalar (prekursorlar)** aylanmasi ustidan **qat’iy davlat nazoratini o‘rnatish**, giyohvandlik vositalaridan tibbiyotda foydalanuvchi **tibbiyot muassasalari, farmatsevtika korxonalari va dori-xonalarning** faoliyatini nazorat qilish amaliyotiga **raqamli yechimlarni joriy etish**;

d) aholi, ayniqsa, **voyaga yetmaganlar va yoshlar** orasida giyohvandlik hamda zaharvandlikni **tashxislash, davolash va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish** tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlarni belgilash.

II. Normativ-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish

3. Ichki ishlar vazirligi (A.Tashpulatov) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda **2025-yil yakuniga** qadar bugungi kundagi amaliyot, zamon talablari va ilg‘or xorijiy tajribalarni kompleks o‘rgangan

holda giyohvandlik vositalari aylanmasini tartibga solish mexanizmlari hamda narkojinoyatlarning oldini olish va fosh etishda davlat organlari va tashkilotlarining aniq mas’uliyatini belgilaydigan **“Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”**gi Qonunning yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda kiritsin.

4. Bosh prokuratura, Oliy sud, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi va Bojxona qo‘mitasining quyidagi **takliflari ma’qullansin:**

a) uyushgan narkojinoyatchilikka jinoiy-huquqiy mexanizmlar orqali qarshi kurashish faoliyatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Jinoyat kodeksiga **“Aholi salomatligi va millat genofondiga qarshi jinoyatlar”** nomli alohida yangi bo‘lim kiritish;

b) narkojinoyatlarning yangi shakllari, usullari va uyushganlik darajasidan kelib chiqib, quyidagi qilmishlar uchun **yigirma yilgacha** ozodlikdan mahrum qilish jazosini belgilashni nazarda tutuvchi **jinoiy javobgarlikni kiritish**:

i) **narkojinoiy uyushma** tashkil etish va uning faoliyat yuritishini ta’minlash, shuningdek, giyohvandlik vositalarini **uyushgan guruh** tomonidan **transchegaraviy usullarda** yoki **internet** tarmog‘idan foydalanib **o‘tkazish**;

ii) giyohvandlik vositalarini noqonuniy muomalaga kiritishga hokimiyat (mansab) vakolatlarini suiiste‘mol qilish yo‘li bilan **homiylilik (rahnamolik)** qilish yoki **bunday jinoyatlar fosh bo‘lishining oldini olish maqsadida xabar berish**;

iii) **g‘ayriqonuniy narkolaboratoriya** tashkil etish va uning faoliyat yuritishini ta’minlash;

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shu yil 4-6-noyabr kunlari amaliy tashrif bilan Amerika Qo‘shma Shtatlarida bo‘ldi. AQSH Prezidenti Donald Tramp va boshqa rahbarlar bilan ikki tomonlama muzokaralar o‘tkazdi. Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSH yetakchilarining “C5+1” formatidagi sammitida ishtirok etdi.

Oliy darajadagi O‘zbekiston — AQSH uchrashuvida yetakchilar ikki tomonlama strategik sheriklik munosabatlari yangi bosqichga ko‘tarilganini ta’kidladi.

Davlatimiz rahbarining ishbilarmonlik dasturidan siyosiy muloqotni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy sheriklik va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qator uchrashuv va tadbirlar ham o‘rin oldi.

Xorijiy ekspertlarga ko‘ra, Vashingtonda o‘tgan sammit yakunlari Markaziy Osiyoning global va mintaqaviy masalalarini hal etishda ishonchli, uzoq muddatli hamda mas’uliyatli sherik sifatida xalqaro maydondagi roli ortib borayotganini ko‘rsatdi. O‘z navbatida, O‘zbekistonning “C5+1” sammiti doirasidagi tashabbuslari va faol pozitsiyasi Markaziy Osiyo mintaqasini barqaror rivojlanish, xavfsizlik va o‘zaro manfaatli hamkorlik makoniga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Antonio ALONSO, San Pablo universiteti professori, Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha mutaxassis (Ispaniya):

— Prezident Shavkat Mirziyoyevning Vashingtonga tashrifi nafaqat O‘zbekiston — AQSH munosabatlari, balki Markaziy Osiyodagi mintaqaviy hamkorlik tizimini rivojlantirishda muhim voqea bo‘ldi. Unda Toshkentning o‘zaro anglashuv, ochiqlikni mustahkamlash, global va mintaqaviy muammolarga birgalikda yechim topishga qaratilgan faol va izchil tashqi siyosati aks etgan.

Davomi 2-beta

Nuqtayi nazar

TA’LIM VA TARBIYA
UYG‘UNLIGI

MAMLAKAT BARQARORLIGINI
TA’MINLAYDI

Ta’lim-tarbiya masalasi azaldan ijtimoiy-siyosiy, madaniy ahamiyat kasb etib keladi va hanuz mamlakatlar taraqqiyoti kun tartibida turadi. Chunki yetishib kelayotgan yosh avlod jamiyat yangilanishida, sohalar rivojida tayanch, asosiy kuchdir. Shu bois, bugun mamlakatimizda ta’lim-tarbiya masalasiga uzluksiz islohotlarning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Renessans — bunyodkorlik, o‘qish va izlanish demak

“Renessans” iborasining mazmun-mohiyati juda keng. Xususan, olimlar mazkur jarayonga ilm-fan, madaniyat, san’at, iqtisodiyot, ta’lim-tarbiyada, umuman, jamiyatda uzoq vaqt saqlanib qolgan turg‘unlikdan so‘ng yuzaga kelgan jonlanish deya ta’rif beradi. Albatta, uyg‘onish, yuksalish qisqa vaqtida namoyon bo‘lmaydi. Buning uchun muayyan vaqt, davr talab etiladi. Shu jihatdan bugun Yangi O‘zbekiston g‘oyasida ham, Uchinchi

Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsadlar zamirida ham bunyodkorlik, muntazam o‘qish va izlanishga da’vat bor.

Prezidentimiz joriy yil 14-fevral kuni faol yoshlar bilan muloqotida Uchinchi Renessans poydevorini bugungi yangi O‘zbekiston yoshlari barpo etishini aytgan edi. Albatta, bunday avlod shakllanishi birgina vaqt bilan bog‘liq emas. Shu bois, o‘g‘il-qizlarning ma’naviyatini yuksaltirish hamda sifatlari ta’lim olishiga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu yo‘lda samarali loyiha va tashabbuslar hayotga tatbiq etilayotir.

Davomi 5-beta

Kino olami



Milliy o‘zlik,
TARIXNI UYG‘OTUVCHI KUCH 6

Samarqand ruhi



Samarqand — faqat geografik joy emas, tarix va ma’naviyat maskani. 2025-yil 30-oktabrda ana shu qadimiy va navqiron shaharda UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining ochilishida Prezidentimiz so‘zlagan nutq o‘z mazmun-mohiyati bilan dunyo hamjamiyati e’tiborini tortdi.

Bu nutqni shunchaki diplomatik chiqish sifatida baholash mumkin emas. Unda XXI asrda yashayotgan bashariyat vakillari uchun zarur ma’naviy konsepsiya — madaniyat orqali tinchlik va ma’rifat yo‘li bilan barqarorlikka erishish g‘oyasi ilgari surildi. Lo‘nda qilib aytganda, O‘zbekiston Prezidentining so‘zlarida xalqlar va madaniyatlar o‘rtasidagi ishonch,

bag‘rikenglik va muloqotni qayta tiklashga da’vat yetangradi.

Asosiy g‘oyalar qatorida madaniyatning siyosiy va iqtisodiy hamkorlikdan ustun turishi, inson qadrlining davlat siyosatining bosh tamoyiliga aylangani va ma’rifatning global xavfsizlikda hal qiluvchi omil ekanini borasidagi fikrlar alohida diqqatga sazovor.

Davlatimiz rahbari ushbu nutqi orqali nafaqat o‘z siyosiy pozitsiyasini, balki insoniyat oldidagi ma’naviy mas’uliyatini ham ifoda etdi. Unda ilgari surilgan asosiy fikr

bunday: davlat siyosatidan ma’naviyat uzilsa, jamiyat ruhiyatida bo‘shliq paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham bugungi O‘zbekistonda “Inson qadri — eng oliy qadriyat” degan g‘oya shunchaki shior emas, balki yangi davlatchilik falsafasining mohiyatiga aylangan. Ushbu falsafa tarixiy meros, zamonaviy siyosat va insoniy qadriyatlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, dunyodagi barcha mojaro va ziddiyatlar zamirida ma’rifat tanqisligi yotadi.

Qurol nafratni kuchaytiradi, ma’rifat esa uni bartaraf etadi. Shu ma’noda, O‘zbekistonning tashqi siyosati “ma’rifat diplomatiyasi” modeliga aylanmoqda. Bu yondashuv UNESCOning ta’lim, fan va madaniyat orqali tinchlik qurish konsepsiyasi bilan ham juda-juda hamohang.

Agar XX asr texnik taraqqiyot asri deyilsa, XXI asr ma’naviy taraqqiyot asri bo‘lishi kerak. Prezidentimiz nutqida aynan shu tamoyil o‘zining qat’iy ifodasini topdi.

Davomi 3-beta

DUNYO QUTBLARINI BOG‘LOVCHI OLTIN HALQA

Buyuk o‘zbek yo‘li



Orzu emas, maqsad sari ildam qadam

Mamlakatimizda bo‘lib o‘tgan yirik ilmiy anjumanlardan birida turkiyalik tarixchi olim, professor Mustafo Demirji dunyoda O‘zbekiston kabi boy tarixiy yodgorliklar, moddiy-madaniy, ijod va ilmiy merosga ega boshqa biror yurt yo‘qligini aytgandi. Buning sababi esa qadimiy shaharlarimiz Sharq va G‘arbni bog‘lagan eng yirik tijorat karvon yo‘li – Buyuk ipak yo‘li markazida joylashgani ekanini qayd etgandi.

Rostdan ham, IX – XVI asrlarda O‘zbekiston hududi dunyoning savdo, tijorat, ilm-fan, madaniyat va san’at markazi sifatida olamga mashhur bo‘lgan. Karvon yo‘lida joylashgan qadim kentlarimizda yirik bozorlar, saroy va

qal’alar qad rostlashi, ilm-fan rivoji hisobiga buyuk allomalar yetishib chiqishi, aholining farovon hayot kechirgani tarixiy asosga ega haqiqatdir.

Shu bois, keyingi yillarda davlatimiz taraqqiyoti, olis tarixdagi mavqeiini qaytarish maqsadida tashqi va ichki siyosatda yo‘l infratuzilmasini yaxshilash, logistika va tranzit islohotlariga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston yangi aeroport, temir yo‘l va vokzallar, pulli avtomobil yo‘llarini barpo etishni jadallashtirmoqda. Yaqinda Prezidentimiz shunday yirik loyihalardan biri — Toshkent viloyatida yangi xalqaro aeroport qurilishiga start berdi.

Davomi 4-beta



BUGUNGI DAVR MA’NAVIVY MANIFESTI



Irgash DAMINOV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi prorrektori,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston so‘nggi yillarda UNESCO bilan hamkorlikni mutlaqo yangi darajaga olib chiqdi. Keyingi 40 yilda tashkilotning Bosh konferensiyasi ilk bor o‘z qarorgohidan tashqarida — Samarqandda o‘tkazildi. Shuning o‘ziyoq dunyo hamjamiyatiga quyidagicha ramziy xabar beradi: tamaddunlar chorahasi bo‘lgan O‘zbekiston endi madaniyatlarning muloqot markaziga ham aylanmoqda.

Prezidentimizning “O‘zbekiston Sharq va G‘arb, Shimol va Janub o‘rtasida uyg‘unlik ko‘prigi, barcha uchun ochiq va konstruktiv hamkorlik maydoni bo‘lishga hamisha tayyor” degan so‘zlari yangi tashqi siyosiy strategiya ma‘naviy manifestining ifodasi bo‘ldi. Bu fikr nafaqat geosiyosiy pozitsiya, balki madaniyat orqali tinchlik qurish g‘oyasining amaliy ifodasi sifatida ham jahon hamjamiyatida katta qiziqish uyg‘otganiga shubha yo‘q.

Ayni vaqtda UNESCO bilan hamkorlikdagi besh yillik dastur doirasida ta‘lim, fan, madaniyat va axborot sohalarida qirqdan ortiq loyiha amalga oshirilmoqda. Ammo bu raqamlardan ham muhimrog‘i, hamkorlik mohiyatidir. U faqat institutsional emas, balki falsafiy va ma‘naviy hamjihatlikka ham asoslangan.

Mamlakatimiz UNESCO bilan munosabatda endi “ta‘limni rivojlantiruvchi ishtirokchi” emas, balki “inson ongini yangilashga da‘vat etuvchi ma‘naviy sherik” sifatida maydonga chiqmoqda. Bu esa yangi bosqich, yangi missiyadir. Yangi O‘zbekiston jahonga o‘zini mana shu missiyaning ijodkori, tashabbuskori sifatida taqdim qilmoqda.

Davlatimiz rahbarining nutqida ta‘lim masalasi alohida strategik yo‘nalish sifatida e‘tirof etildi. Unda ta‘lim faqat bilim berish tizimi

emas, balki inson ongi, ruhiyati va ma‘naviy immunitetini shakllantiruvchi jarayon sifatida talqin qilindi. “Inklyuziv ta‘lim platformasi”, “Jahon professional ta‘lim sammiti” va “Sun‘iy intellekt — maktab” loyihalari haqidagi takliflar sohadagi yangi bosqichning ramzlaridir. Bugunga kelib, O‘zbekiston ular orqali ta‘lim tizimini jahon standartlariga mos, milliy qadriyatlarga tayangan holda yangilamoqda.

Mamlakatimiz yetakchisi fikrlarining falsafiy mohiyati shundaki, inson ongidagi o‘zgarish — jamiyatdagi eng katta evrilishdir. Chunki texnologiyalar rivojlanishi insonni emas, inson ma‘naviyatini o‘zgartirishi lozim. Aks holda, bu shakliy o‘zgarish bo‘lib, mazmun, ruhiyat daxislz qolar edi. Shu nuqtayi nazardan, ta‘lim faqat iqtisodiy rivojlanish vositasi emas, balki ma‘naviy taraqqiyot poydevori hamdir.

O‘tmishni himoya qilish uchun uni muzeyda saqlash emas, balki hozirgi hayotning ma‘naviy qismiga aylantrish lozim. Prezidentimizning bu borada ayrgan so‘zlaridan shunday xulosa chiqadi: agar bir xalq o‘z ildizini anglamasa, kelajagi mavhum bo‘ladi. Shu sabab, tarixiy merosni himoya qilish bu davlat siyosati emas, balki chin insoniy burchdir.

O‘zbekistonning UNESCO bilan birga qilayotgan ishlari ham shunday ma‘naviy mas‘uliyatni ifoda etadi. Xiva, Buxoro, Samarqand va Shahrisabz shaharlarining jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilishi, Zarafshon — Qoraqum yo‘lagidagi qadimiy sivilizatsiya izlarini qayta tiklash, G‘arbiy Tyanshan tog‘lari va Turon cho‘llarining tabiiy meros sifatida himoya qilinishi singari xayrli amallar qadimiy tamaddunni o‘rganish va tabiiy evolyutsiyani himoyalashga xizmat qiladigan ezigulikning amaliy ko‘rinishidir.

Bu jarayonda O‘zbekistonning maqsadi faqat o‘z merosini ko‘z-ko‘z qilish emas, balki umuminsoniy xotirani ham mustahkamlashdir.



Shu sabab davlatimiz rahbari 19-noyabrm “Hujjatli meros xalqaro kuni” deb e‘lon qilish tashabbusini ilgari surdi. Bu taklif tarixni qog‘ozda emas, ongda saqlash kerakligi haqidagi umuminsoniy fikrni ham qo‘llab-quvvatlaydi.

UNESCOning “Jahon xotirasi” dasturi aynan shu tamoyilga asoslanadi. Davlatimiz rahbarining bu tashabbusi bugungi dunyoda tarixiy manbalarni raqamlashtirish va kelajak avlod uchun hujjatli merosni saqlash harakati bilan ham uyg‘un. Shu ma‘noda aytish mumkinki, O‘zbekiston madaniy meros sohasida tarixni siyosatga emas, ma‘naviyatga xizmat qildirish modelini yaratmoqda.

“ UNESCOning “Jahon xotirasi” dasturi aynan shu tamoyilga asoslanadi. Davlatimiz rahbarining bu tashabbusi bugungi dunyoda tarixiy manbalarni raqamlashtirish va kelajak avlod uchun hujjatli merosni saqlash harakati bilan ham uyg‘un. Shu ma‘noda aytish mumkinki, O‘zbekiston madaniy meros sohasida tarixni siyosatga emas, ma‘naviyatga xizmat qildirish modelini yaratmoqda.

Bundan tashqari, tenglik va gender adolat masalasi ham Prezidentimiz nutqida ilmiy tahlil darajasida yoritildi. Jahonda ilmiy muassasalar rahbarlarining atigi 25 foizi xotin-qizlar ekani insoniyat ongining hanuz bir tomonlamaligini anglatadi. Shu bois, davlatimiz rahbari UNESCO doirasida “Xotin-qizlar yetakchiligi bo‘yicha global akademiya” tashkil etish tashabbusini ilgari surdi.

Bu loyiha ayollarning faolligini ham ijtimoiy jihatdan, ham intellektual va siyosiy jarayonlarda kuchaytirishni nazarda tutadi. Chunki ayollar faolligini oshirish, birinchidan,



dunyovarashi ilmiy, ma‘naviy jihatdan to‘g‘ri shakllantirilgan ekan, jamiyatlar taraqqiy etadi, dunyo tinch bo‘ladi.

Mamlakatimizdagi deyarli barcha oliy ta‘lim muassasasida “Mediasavodxonlik” fani joriy etilgan. Negaki axborot erkinligi — muhim qadriyat. Ammo erkinlik mas‘uliyatsizlikka aylansa, ma‘rifatga qarshi qurol vazifasini bajaradi. Shu ma‘noda, davlatimiz rahbarining pozitsiyasi aniq: axborot makonida ma‘rifat ustuvor bo‘lishi kerak, chunki haqiqatni faqat bilim asraydi.

Prezidentimizning “Islom madaniyati va ma‘rifatini dunyoga tarannum etish orqali radikalizm va islomofobiya qarshi samarali kurashish mumkin. Bu borada O‘zbekistonda amalga oshirilgan noyob loyihalar — Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband tadqiqot markazlari salohiyatidan birgalikda foydalanishga chaqiramiz”, degan so‘zlari, ehtimol, butun sessiyaning kulminatsion nuqtasiga aylangan bo‘lsa, ne ajab!

Bu so‘zlar zamirida nafaqat diniy, balki o‘ta teran falsafiy konsepsiya bor. Chindan ham zo‘ravonlikni kuch emas, ma‘rifat yengadi. Ushbu hikmatning buyuk allomalar vatani bo‘lgan O‘zbekiston yetakchisi tilida yangragani uning ta‘sirini yanada oshirdi. Chunki bu yurtning har bir allomasi azaldan ma‘rifatni bayroq bilgan, ilmiga qat‘iy amal qilgan.

Dunyoda islomni noto‘g‘ri talqin qilayotgan oqimlar fonida O‘zbekistonning bu pozitsiyasi juda muhim. Prezidentimiz muqaddas dinimizni jahonga ma‘rifat va insoniylik manbai sifatida ko‘rsatmoqda. Qolaversa, hozirga qadar u bu pozitsiyani ilmiy asosda ishlab chiqilgan milliy modelga ham aylantira oldi.

O‘zbekistonda Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon

Beruniy, Abu Ali ibn Sino va Bahouddin Naqshband kabi ulug‘ zotlarning ilmiy va ma‘naviy merosi qayta tadqiq etilayotgani shundan dalolat. Bu faqat diniy tadqiqot bo‘libgina qolmay, aql va qalb uyg‘unligiga asoslangan ma‘rifiy yo‘l hamdir. Bu yo‘l islomni faqat ibodat tizimi emas, balki ilm, fan, estetika va insonparvarlik sivilizatsiyasi sifatida talqin etadi.

Mamlakatimiz yetakchisining so‘zlari bugun dunyoda yangicha islom diplomatiyasi uchun zamin yaratmoqda. Prezidentimiz fikri zamirida bunday xulosa bor: agar jamiyat qalbiga islom ma‘rifati singdirilmasa, uni jaholatdan qonunlar himoyasi qila olmaydi. Shuning uchun ma‘naviyatsiz islohot amalsiz so‘zdan farq qilmaydi. Islom ma‘rifati esa inson qadriga yo‘ldir.

UNESCO Bosh konferensiyasining Samarqandda o‘tkazilishi tasodif emas. Bu voqea zamirida yangi diplomatik falsafa

yotadi. Agar klassik diplomatiya siyosiy yondashuvlarga asoslanga, Samarqand hodisasi ma‘naviyatga tayangan muloqot madaniyatini ilgari surdi.

Prezidentimiz buni so‘z bilan emas, tayyorgarlik muhiti bilan yarata oldi. Konferensiya nafaqat rasmiy anjuman, balki insoniyat ongini yangilashga qaratilgan ma‘naviy muhitga aylanib ketgani shundan dalolat. Dunyoda kuch, iqtisodiyot, texnologiya uchun kurash ketayotgan bir vaqtda Samarqandda yangragan fikrlar tinchlik va hamjihatlik sari chaqiruv bo‘ldi.

Bu voqelikni, sharqona ta‘bir bilan aytganda, “Samarqand hodisasi”ni raqobat o‘rniga hamjihatlik, bosim o‘rniga muloqot, targ‘ibot o‘rniga ma‘rifat falsafasi deiyish mumkin. Samarqand minbarida yangragan fikrlar jahon jamoatchiligiga yangi diplomatik til taklif qildi. U tilda g‘azab o‘rnida sabr, nafarat o‘rnida muhabbat, kuch o‘rnida fikr, tahdid o‘rnida murosas bor. Shu ma‘noda, bu sessiya nafaqat siyosiy anjuman sifatida tarixda qoladi, balki insoniyat hayotida yangi ma‘naviy bosqichni boshlab berishiga ishonchimiz komil.

“Samarqand hodisasi”ning falsafiy ramzi ham shu aslida: ma‘rifat orqali tinchlikni ta‘minlash. Bu g‘oya orqali mamlakatimiz xalqaro munosabatlarda “madaniy ta‘sir” usulini ilgari surmoqda. Bu yo‘lda O‘zbekistonning tarixiy qiyofasi ham, bugungi islohotlari mohiyati ham uyg‘un. Ajabmaski, Imom Moturidiy aqidasi, Buxoriy haqiqati, Naqshband tariqati va Navoiyning so‘z qudrati bugungi diplomatiyaning tiliga aylansa.

Prezidentimizning Samarqanddagi nutqi siyosiy bayonot emas, ma‘naviy dasturdir. Bu dasturda jahon ahliga qaratilgan asosiy da‘vat shu: “Tinchlikni qurol emas, ma‘rifat ta‘minlaydi!” Bu fikr zamirida inson va davlat o‘rtasidagi yangi munosabat modeli yotadi: inson — obyekt emas, markaz. Madaniyat — bezak emas, siyosatning ma‘naviy poydevori.

Shu nuqtayi nazardan, bu nutqni XXI asr siyosiy falsafasining dasturi sifatida ham baholash mumkin. Unda siyosat va ma‘naviyat, tarix va kelajak, inson va sivilizatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik yangi ma‘noda tahlil qilingan va ochib berilgan.

Ushbu tarixiy nutqda Prezidentimiz ilgari surgan turkum g‘oyalari shundan iborat: madaniyat — tinchlikning tili, ma‘rifat — uning mazmuni, inson — uning markazi. Bu uchlik qaysi tomondan o‘qilsa ham, yangi O‘zbekiston rahbari tomondan doimiy tarzda ilgari surilayotgan ezigu tashabbuslarning bosh mazmuni — “hazrati inson” degan ma‘no kelib chiqadi.

Shu nuqtayi nazardan, yer yuzining sayqali — Samarqandda yangragan so‘zlar faqat bir anjumaning emas, balki butun bir davrning ma‘naviy manifestidir.

Anjuman

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasida
“11-noyabr — O‘zbekiston
kasaba uyushmalari kuni: yangi
O‘zbekistonning yangi kasaba
uyushmalari faoliyatiga nazar”
mavzusida matbuot anjumani
bo‘lib o‘tdi.

Federatsiya, tarmoq kasaba uyushmalari Respublika Kengashi mas‘ullari, OAV vakillari ishtirok etgan konferensiyada so‘nggi 8-9 yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan barcha soha va tarmoqlarda inson qadriini ulug‘lash yo‘lida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar sabab yuksak natijalarga erishilgani hamda yangilanishlar jarayonida O‘zbekiston kasaba uyushmalari ham faol ishtirok etayotgani e‘tirof etildi.

Darhaqiqat, keyingi yillarda kuzatilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish jarayonida kasaba uyushmalarining ishtiroki, ishchi-xodimlar uchun munosib mehnat sharoitini yaratish va haq-huquqlarini ishonchli ta‘minlashda faoliyat samaradorligi ortib bormoqda. Zero, Prezidentimiz shu yil 17 oktyabrda kasaba

uyushmalari faollari va faxriylari bilan o‘tkazilgan uchrashuvda “Hech shubhasiz, biz erishayotgan natijalarda 8 millionga yaqin a‘zoga ega, eng xalqchil va katta nodavlat tashkilot bo‘lgan kasaba uyushmalarining munosib hissasi bor”, deya alohida qayd etdi.

Anjumanda tashkilot mas‘ul rahbarlari va faollariga davlatimiz rahbari tomondan qo‘yilgan mas‘uliyat va tegishli vazifalar mohiyati ochib berildi. Ularni amalga oshirish bo‘yicha maxsus yo‘l xaritasi ishlab chiqilgani ta‘kidlandi.

Keyingi yillarda sohada amalga oshirilayotgan takomillashuv jarayonlari, yangilanish va o‘zgarishlar hamda tashkilot tomondan ishchi-xodimlarning mehnat huquqlarini himoyalash, korxona va muassasalarda mehnat muhofazasini tashkil etish, ularni sog‘lomlashtirish va maroqli dam olishini yo‘lga qo‘yish borasida hayotga tabiiq etilayotgan tashabbus va loyihalar to‘g‘risida ma‘lumot berildi.

Federatsiyaning xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalarini ratifikatsiyalash bo‘yicha hamkorlik yo‘nalishidagi faoliyati yangi bosqichga chiqdi.



O‘tgan besh yilda kasaba uyushmalarining korxona va tashkilotlarda mehnatga oid huquqlarini himoya qilish borasidagi samarali faoliyati natijasida 500 mingga yaqin xodimning qonuniy huquqlari tiklandi, ular foydasiga 267

milliard so‘m undirildi. Shuningdek, ishdagi baxtsiz hodisalar tufayli jabrlangan 1000 nafar xodimga 35 milliard so‘m tovon puli to‘lab berildi. Bundan tashqari, ishdan nohaq bo‘shatilgan 13 ming xodim ishga tiklandi. Ijtimoiy

yo‘naltirilgan davlat dasturlarini bajarish doirasida jamoa shartnomalari va kelishuvlari orqali qariyb 946 ming fuqaro va 353 mingdan ziyod oilaga 966 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ sarflandi.

2024-yil yakunlariga ko‘ra, respublika bo‘yicha 32 ming 251 ta korxona va tashkilotda jamoa shartnomalari asosida yagona tarif setkasida belgilangan razryadlar koeffitsiyenti ko‘tarilgan. Bu orqali 1 million 342 ming xodimning ish haqi oshirilishiga erishildi.

Tadbirda, shuningdek, 2025-yilda kasaba uyushmalari organlarining vakolat muddati tugashi munosabati bilan O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tizimidagi kasaba uyushmalari tashkilotlarida o‘tkazilgan hisobot-saylovlar natijalari to‘g‘risida ham ma‘lumot berildi.

Ta‘kidlanganidek, saylovlar demokratik, adolat tamoyillari asosida shu yo‘nalishdagi me‘yoriy hujjatlariga to‘liq amal qilingan holda tashkil etildi. Shu yil 1-noyabrda poytaxtimizda O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining IX qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Unda mazkur jamoat tashkiloti raisi Qudratilla Rafiqovning hisobot ma‘ruzasi, O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi nazorat-taftish

komissiyasining 2021-2025-yillardagi faoliyati to‘g‘risidagi hisoboti tinglandi.

Federatsiya tizimida ilk bor muqobillik asosida o‘tkazilgan saylov natijalariga ko‘ra, Qudratilla Rafiqov ko‘pchilik ovoz bilan O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi raisi etib saylandi.

Matbuot anjumani doirasida O‘zbekiston kasaba uyushmalarining 120 yilligiga bag‘ishlab chiqarilgan pochta markalari taqdimoti hamda maxsus xotira stempeli bilan so‘ndirish marosimi ham o‘tkazildi.

Ushbu markalar sana munosabati bilan Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan 2025-yil 2-oktabrdan muomalaga kiritilgan. 9 ta maxsus pochta markasida yurtimiz mehnatkashlari salomatligi uchun xizmat qilayotgan dam olish maskanlari, sport hamda sog‘lomlashtirish majmualari, shuningdek, bolalar oromgohlari tasvirlangan.

Anjuman yakunida jurnalistlarning tashkilot faoliyatiga doir savollariga atroflicha javob berildi.

Sanjar TURDIQULOV,

jurnalist



TA'LIM VA TARBIYA UYG'UNLIGI

MAMLAKAT BARQARORLIGINI TA'MINLAYDI



Alisher HOTAMOV,
Yangiheyot tumani hokimi
o'rinbosari

Boshlanishi 1-betda

O'rganish va rivojlanish payti

Yoshlarning bo'sh vaqtini foydali, mazmunli o'tkazishiga ko'maklashish mazkur ulkan maqsadlarni amalga oshiradigan barkamol avlodni tarbiyalashning juda muhim va ishonchli vositalaridandir. Sport o'yinlari, ijodiy to'garaklar, mutolaa, oila davrasi, kasb-hunar kabilar shaxsning ijtimoiy-madaniy qarashlarini, kuch hamda imkoniyatini muayyan maqsadga safarbar etadi.

Bu yil yozgi ta'til davrida "Dolzab 90 kun" loyihasi amalga oshirildi. U o'quvchilar hamda uyushmagan yoshlarning maroqli dam olishi, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishiga xizmat qildi. Loyiha doirasida sport musobaqalari, turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, kitobxonlik tanlovlari, badiiy-ma'rifiy kechalar, kasb-hunar va zamonaviy kasblarga o'rgatadigan to'garaklar tashkil etildi. Ushbu tadbirlar yoshlarda katta qiziqish uyg'otdi, bilimini mustahkamlashi,

jismoniy chiniqishida foydali bo'ldi. Xususan, poytaxtimizning Yangiheyot tumanida mingga yaqin tadbir o'tkazilib, ularga 40 mingdan ziyod yoshlar qamrab olindi. Ilk marotaba tashkil etilgan "Hokim kubogi" sport musobaqasini tuman ahli iliq kutib oldi. Musobaqada g'olib bo'lgan 45 yigit-qizni rag'batlantirish uchun "Hokim stipendiyasi" joriy etildi. Tumandagi 329-maktabda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish uchun 9 yo'nalishdagi to'garak faoliyat yuritadigan "Kasb markazi" ishga tushirildi.

Loyiha doirasida hududlardagi o'g'il-qizlar musobaqa va madaniy-ma'rifiy tadbirlar, turli to'garaklarga jalb qilinishi barobarida oromgohlar, turli sayohatlarga yuborilib, maroqli dam olishi uchun ham sharoit yaratildi. Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, dam olish vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida yozgi ta'til davrida o'tkazilgan ushbu loyiha doirasidagi tadbirlar majmui qisqa muddatda samarasini ko'rsatdi. "Bolaning bo'sh vaqti — dushmanning ish vaqti" deganlaridek, yozgi ta'tilda hech bir yosh e'tibordan chetda qolmadi. Mahallalarda jinoyatchilik, bezorilik kabi illatlar keskin kamaydi.

Ota-onalar to'garak va tadbirlarga jalb etilgan farzandlarining vaqtini behuda o'tkazish odati yo'qolganini aytdi. Qisqasi, "Dolzab 90 kun" loyihasi o'g'il-qizlarning o'z ustida mustaqil ishlashi, maroqli madaniy hordiq chiqarishini ta'minladi.

O'quvchilar ortiqcha tadbirlarga jalb etilmaydi

Loyiha keng ko'lamli islohotlarning mantiqiy davomi sifatida respublika miqyosida muntazam o'tkaziladigan tadbirlar majmuiga aylandi. Tajribadan kelib chiqib, tizim takomillashtiriladigan bo'ldi. Prezidentimiz raisligida shu yil 9-sentabr

“

O'zbekistonda yoshlarni tarbiyalash uchun ta'lim va tarbiya, ilm-ma'rifat, milliy qadriyat hamda yuksak ma'naviyat uyg'unligi bilan takomillashgan yangicha tizim yaratilmoqda. U o'zbek yoshlarining ham jismonan, ham ma'nan yetuk kadr bo'lib yetishishiga zamindir. Bilimi va salohiyati, kasb-hunari oltin avlodning ikki qanoti bo'lib, eng baland cho'qqilarni zabt etishga pillapoya hisoblanadi. Bu esa, albatta, yangi O'zbekistonning har jabhada eng taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan joy olishiga xizmat qiladi.



kuni maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi sohasidagi islohotlar ijrosi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bu borada batafsil ma'lumot berildi. Endi bunday tadbirlarga aniq maqsad bilan va manzilli yondashiladi.

Ma'naviy-tarbiyaviy ishlar ham ta'limning asosiy bo'g'inlaridan. Ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Keyingi yillarda o'qitish tizimidagi islohotlar

bog'chadan boshlanib, maktab va universitetlarda davom ettirilmoqda. Ammo yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, iqtidori va iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladigan yaxlit tizim yo'q edi. Shu bois, bolalar bog'chasidan oliy ta'limgacha jarayon qamrab olingan yagona milliy g'oya konsepsiyasi ishlab chiqildi. U ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning namunaviy rejasi bo'ladi. Natijada bunday ishlar tartibli va saviyali tashkil etilib,

Nuqtayi nazar



o'quvchilar ortiqcha tadbirlarga jalb etilmayapti. Ushbu tizimning samarali ishlashida "Kelajak" markazlari muhim o'rin tutmoqda. Ushbu markazlar orqali muhandislik, ilm-fan, madaniyat, san'at, kitobxonlik, sport va ekologiya yo'nalishlari bo'yicha o'quvchilar to'garaklarga jalb qilinadi. Eng muhimi, bolalarning to'garaklar, sport, volontyorlik va olimpiadalarda erishgan natijalari bo'yicha "raqamli portfolio"si shakllanib, elektron shahodatnomada ko'rsatiladi.

Xalqaro tajribaga e'tibor berilsa, xorijiy oliy ta'lim muassasalariga hujjat topshirishda o'quvchining ijtimoiy faolligi haqidagi ma'lumotlar katta ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan ushbu ma'lumotning elektron shahodatnomadan joy olishi juda muhim.

Hunardan unar

Yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha ham samarali tizim yo'lga qo'yilmoqda. Buning natijasida yoshlar kelgusida doimiy daromadga ega bo'ladi. Shu bois, yurtimizda ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mutasaddirlar zimmasiga Prezident ta'lim muassasalari va ixtisoslashgan maktablarda o'rtilirilgan tajriba asosida joriy yilda 598 ta texnikumga xalqaro standart bo'yicha zamonaviy kasbga o'qitish muhitini olib kirish vazifasi yuklandi. Umuman, viloyat va tuman hokimlariga kelgusi o'quv yilida 9-sinf bitiruvchilarining kamida 50

foizini, hozirgiga qo'shimcha yana 200 ming o'quvchini texnikumga qamrab olish topshirig'i berildi.

“

Bundan tashqari, kasbga o'rgatishda Xitoy tajribasini joriy etish maqsadida har bir viloyatda 2 tadan "O'zbekiston — Xitoy ustaxonasi" ochiladigan bo'ldi. Shu yil sentyabrda davlatimiz rahbarining o'qituvchi va murabbiylar bilan mulqoti davomida qator vazifa va takliflar berildi. Mazkur yo'nalishdagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

O'zbekistonda yoshlarni tarbiyalash uchun ta'lim va tarbiya, ilm-ma'rifat, milliy qadriyat hamda yuksak ma'naviyat uyg'unligi bilan takomillashgan yangicha tizim yaratilmoqda. U o'zbek yoshlarining ham jismonan, ham ma'nan yetuk kadr bo'lib yetishishiga zamindir. Bilimi va salohiyati, kasb-hunari oltin avlodning ikki qanoti bo'lib, eng baland cho'qqilarni zabt etishga pillapoya hisoblanadi. Bu esa, albatta, yangi O'zbekistonning har jabhada eng taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan joy olishiga xizmat qiladi.

Ogohlik

Zaminimiz zilzila, toshqin va xo'chki kabi tabiat hodisalaridan xoli emas. Dunyo olimlari ana shunday hodisalar, ayniqsa, yer silkinishining oldini olish bo'yicha juda ko'p ilmiy izlanishlar o'tkazgan. Ammo shu paytgacha zilzilani oldindan aniqlaydigan ishonchli tizim yaratilmagan. Zarur chora-tadbirlar orqali oqibatda yuzaga keladigan talafotlarni kamaytirish mumkin, xolos. Bunda bino va inshootlarning seysmik mustahkamligi, ya'ni zilzilaga chidamliligi juda muhim. Chunki bu inson hayoti, jamiyat xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda juda muhim. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti direktori, fizika-matematika fanlari doktori, professor Karim SULTONOV bilan suhbatimiz shu haqda bo'ldi.

— Institut seysmik faollikni kuzatishda qanday vazifalarni bajaradi? Qaysi turdagi uskunalar va texnologiyalardan foydalanilmoqda? So'nggi yillardagi muhim tadqiqot yoki yangiliklar haqida gapirib bersangiz.

— Deformatsionalanuvchan qattiq jism mexanikasi, grunlar mexanikasi, eksperimental mexanika, bino-inshootlar seysmik mustahkamligi, suyuqlik va gaz mexanikasi, mexanizmlar va mashinalar nazariyasi, konstruksiyalar dinamikasi hamda mustahkamligi bular — institutimiz faoliyatining asosini tashkil etadi. Bino-inshootlar mustahkamligini ta'minlash uchun hisoblash usullari, nazariy, amaliy, eksperimental usullar ham institutimizda ishlab chiqiladi.

2017-yildan keyin qurilgan baland inshootlar, ijtimoiy obyektlar — bog'cha, maktab, shifoxona, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlari binolari muntazam monitoring qilib borilmoqda. Mutaxassislar tomonidan vizual tekshiruvdan o'tkazilyapti. Daylik, biror yoriq paydo bo'lgan, poydevorida darz ketgan joy bo'lsa, darhol qayd etiladi. Ayrim hollarda ko'p qavatli uylarda qo'shimcha yana bir qavat qurilgani, tomi yoki yerto'lasidan boshqa maqsadlarda foydalanilayotganiga guvoh bo'lamiz. Shu bois, o'zbochimchalik



bilan kiritilgan o'zgartirishlarni aniqlash jarayonida institutimiz mutaxassislari ham faol qatnashmoqda.

Inshootlar to'rt toifaga bo'linadi. 12 qavatdan baland imoratlar, harbiy inshootlar, davlat korxonasi, ishlab chiqarish yoki ijtimoiy binolar, jamoat ko'p yig'iladigan konsert zallari, kinoteatrlar to'rtinchi toifaga kiradi. Shu paytgacha binolar loyihasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan ekspertiza qilinib, obdan o'rganilgach, qurilishga ruxsat beriladi. Ayni paytda unga qo'shimcha ravishda tekshiruvdan oldin loyihaga ilmiy xulosa olish tartibi ham belgilandi. Bu amaliyot bizda ilk bor qo'llanmoqda. Ilmiy xulosa berish esa aynan institutimiz zimmasiga yuklatilgan. Tanlangan qurilish maydonidan boshlab loyiha hisob-kitobigacha ko'rib, o'rganib chiqishimiz kerak. Bu bir oz murakkab jarayon. Ammo 2022-yildan boshlab shu vazifani bajarib kelyapmiz. Qurilish maydoni to'g'ri tanlanganni, tanlagandan keyin qurilayotgan binoning loyihasida poydevor mustahkamligi yetarlicha ta'minlanganni, binoning zilzilabardoshligi qay darajada? Mana shu jihatlariga o'ta diqqat bilan e'tibor qaratiladi.

Har bir loyihani o'rganib chiqish uchun uch oy muddat beriladi. Ilmiy xulosa vazirlikka yuboriladi. Tuzatishlar kiritilib, loyiha takomillashtirilganidan keyin yakuniy xulosa beriladi.

SEYSMIK MUSTAHKAMLIK

BUNDA NIMALARGA E'TIBOR QARATISH KERAK?

— Seysmik mustahkamlik o'zi nima degani? U qanday talablarni qamrab oladi? — Yer silkinishida binoga shikast, talafot yetmasligi, hech qayerida yoriq paydo bo'lmasligi, asl holatini saqlab qolishi seysmik mustahkamlik deyiladi.

Aslida, qurilish bo'layotgan hududda kutiladigan zilzila prognoziga e'tibor qaratish kerak. Seysmik kuch oldindan hisob-kitob qilinib, devorlar qalinligi, qo'yiladigan to'sinlar yuzasi, armaturalar o'rnatilishi va payvandlash ishlari qanday bajarilgani, qurilish materiallari sifati, shift balandligi o'rganiladi. Ana shu talab va qoidalariga amal qilinsa, inshoot mustahkamligi ta'minlanadi, albatta. Bu qurilish materiallarini to'g'ri tanlashga ham bog'liq.

Asosiy shartlaridan yana biri — qurilish texnologiyasiga amal qilishdir. Jarayonda qoidabuzarlik holatlari uchrashi ehtimoli katta. Shuning uchun ayni paytda qurilish texnologiyalari usidan nazorat kuchaytirilyapti.

— Inshootlarning seysmik holati qanday baholalanadi?

— Bino tomiga tebranuvchi maxsus mashina qo'yiladi va tebratib ko'riladi. Shu tarzda zilzila paytida bino tebranishi hisoblab chiqiladi. Jarayonda biror xavotirli holat, yoriq kuzatilmasa, demak, u mustahkam qurilgan.

2024-yilda AQSHdan 1,5 million dollar evaziga Markaziy Osiyoda yagona seysmik platforma sotib olindi. U 300 tonna kuch bilan binoni qimirlatishi mumkin. Bu — juda katta kuch. Ushbu seysmik platforma joriy yilda ishga tushiriladi.

Bino eski bo'lsa, mustahkamligi har besh yilda tekshirib turilishi kerak. Daistlab vizual ko'rib chiqiladi. Keyin uskunalar yordamida devorlar ichi o'rganiladi. Eskirish bosqichi hisob-kitob qilinib, baholalanadi. Ammo foydalanuvdagi binoni maxsus tebratib, tekshirish tavsiya etilmaydi.

2022-yildan buyon barcha ijtimoiy obyektlar zarur uskunalar yordamida o'rganib chiqilmoqda. Jarayon yakuniga yetay deb qoladi. 2017-yildan keyin qurilgan, aholi yashayotgan, yangi qurilayotgan ko'p qavatli barcha bino vizual tekshiruvdan o'tkazildi. Natijada bir

qancha inshoot foydalanishga yaroqsiz deb topildi. Ayni paytda ularni buzish chorasi ko'rilyapti.

Agar bino loyihada ko'rsatilgan talablarga zid qurilsa, juda katta talafotga sabab bo'lishi mumkin. Bunga yo'l qo'yish mumkin emas. Chunki bu — jinoyat!

Yaqin yillarda yuz berayotgan zilzilalar yerda global seysmik faollik kuzatilayotganini bildiradi. Bu, albatta, xavotir uyg'otadi.

Keyingi yillarda yurtimiz bo'yab ko'rkam va zamonaviy ko'p qavatli binolar, aholi turar joylari barpo etilmoqda. Shu o'rinda ushbu binolarning mustahkamligi qay darajada degan haqli savol tug'iladi. Uzoq yillar sohada faoliyat yuritib kelayotgan mutaxassis sifatida xavotirga o'rin yo'qligini aytishim mumkin. Chunki barcha inshoot qat'i'y tekshiruvdan o'tkazilmoqda.


— So'nggi texnologiyalar seysmik tahlilni qanchalik osonlashtirmoqda?

— Qurilish texnologiyalari azaldan mavjud. Me'moriy obidalarimizga asrlar davomida shikast yetmagani bunga misol. Jamiyat, ilm-fan taraqqiy etgani sari yangi qurilish texnologiyalari yuzaga keldi. Bugun rivojlangan

mamlakatlarda yer tebranishini binoga o'tkazmaydigan, kuchini kamaytiradigan usul hamda texnikalar ishlab chiqilgan. Masalan, AQSHda poydevorga seysmik izolyatorlar qo'yiladi. Busiz bino barpo etilmaydi. Inshoot juda baland bo'lsa, har besh qavatda tebranishni so'ndiruvchi dempfer qo'yiladi. Ularni yasash texnologiyalari juda mukammal va qimmat. Hozir institutimiz xodimlari chidamli seysmik izolyator bilan dempferlarni mahalliy materiallar asosida ishlab chiqish ustida ishlayapti.

— Kompyuter modellashtrish yoki simulyatsiya dasturlari ham qo'llanyaptimi?

— Binoning mustahkamligini sinovdan o'tkazaman desangiz, juda katta mablag' talab etiladi. Buning uchun, avvala, inshootni qurish, unda seysmik kuchni ko'ylash kerak. Bularning barchasini kompyuter orqali bajarsa ham bo'ladi. Institutimizdagi eng asosiy ilmiy yo'nalishlardan biri shunga qaratilgan. Kompyuterda modellashtrish bo'yicha dunyoda katta dasturlar ishlab chiqilgan. O'zimiz ishlab chiqqan kompyuter modellashtrish usullarini o'sha dasturlar bilan solishtirib ko'ramiz. Ular mustahkamlik o'lchovlarini aniqlashga yordam



beradi. Sun'iy intellektdan ham samarali foydalanyapmiz.

Aytib o'tganimizdek, seysmik mustahkam bino arzon turmaydi. Ammo gap inson xavfsizligi, hayoti haqida ketar ekan, mablag'ni iqtisod qilish haqida gap bo'lishi mumkin emas. Zilzila chog'ida binoga talafot yetmasa, odamlar zarar ko'rmasa, bu ijtimoiy samara deyiladi.

Joylarning geologik tuzilishi bir-biridan tubdan farq qiladi. Shu sababli yer silkinishi ham bir-briga o'xshamaydi. Xuddi shunday oqibatlar ham turlicha bo'ladi. Mana shu holat bunyodkorlikda mahalliy sharoitni hisobga olish kerakligini bildiradi.

Yaponiyada tez-tez yer qimirlaydi. Yaponlarning tajribasini o'rganish maqsadida har yili uch-to'rt marotaba yosh olimlardan iborat guruhlari kunchiqar mamlakatga yuborilyapti. Joriy yilda yaponiyalik, AQSHlik bir guruh olimlar Toshkentga kelib, mutaxassislarimizga seysmik mustahkamlikni ta'minlashning ilg'or usullari bo'yicha ma'ruza qildi.

Ayni paytda xorijlik mutaxassislar bilan Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi hamkorligida yurtimizdagi bino-inshootlardan tashqari 30 ga yaqin to'g'roni kosmosdan uluksiz monitoring qilib boryapmiz.

Italiya, Ispaniya, Portugaliya ham seysmik xavfli mamlakatlar sirasiga kiradi. Germaniya, Shvetsiya, Norvegiyada yer kam qimirlaydi. Shunday bo'lsa-da, texnologiya rivojlangan. AQSHning Kaliforniya shtati, San-Fransisko, Los-Anjeles shaharlarida yer ko'p qimirlaydi. Kaliforniyang Berkli shahrida juda yirik seysmik xavfsizlik markazi bor. Yaqinda institutimizning ikki xodimi shu markazda bir oy stajirovka o'tab keldi.

— Yurtimizda bunyodkorlik ishlari avj olgan. Natijada butun boylar massivlar, shaharlar paydo bo'lyapti. Quruvchilarga zilzila xavfini kamaytirish uchun qanday tavsiyalar bera olasiz? Aholi seysmik xavfdan ogoh bo'lishi, yer silkinishidan saqlanishi uchun nimalarga e'tibor qaratishi kerak?

— Quruvchilarga loyihada ko'rsatilgan ko'rsatmalarni vijdonan bajarish tavsiya etiladi. Texnologiyadan foydalanishi tartib-qoidalariga to'liq rioya qilish kerak.

Uyni qurish uchun yerga qozoq qoqildimi, bir-ikki oy kutish kerak. Ertasiga ish boshlash yaramaydi. Chunki shu vaqt ichida qozoq o'mashadi. Grunt o'zining mustahkam holatiga qaytadi.

Odamlarda bu bo'yicha tushuncha bo'lishi shart. Shu maqsadda ayni paytda yurtimizda bog'chadan boshlab oliy ta'lim muassasalarigacha tushuntirish ishlari olib borilyapti. Institutimiz tomonidan qo'llanmalar chiqarilib, aholiga yetkazilyapti. Asosiysi, xavotirga tushmaslik, vaziyatni nazorat qilish. Umuman olganda, vahimaga tushmaslik kerak. Bu bilan inson o'zi, oilasi hayotini saqlab qoladi. Bu borada yetarli bilimga ega bo'lish ko'ngilsiz holatlarning oldini oladi.

“Yangi O'zbekiston” muxbiri
Risalat MADIYEVA suhbatlashdi.

Kino — ta’sirchan va qudratli san’at. U faqat madaniy ko‘ngilochar vosita emas, balki har qaysi mamlakatning muayyan siyosiy, ma’naviy va mafkuraviy o‘zligini namoyon qiluvchi, keng jamoatchilik ongiga ta’sir o‘tkazuvchi katta targ‘ibot qurolidir. Shundan kelib chiqib aytganda, kinoda har bir xalqning turmush tarzi, tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari, dunyoqarashi va madaniyati o‘z ifodasini topadi. Shu bois, rivojlangan davlatlar kino sohasiga alohida e’tibor qaratib keladi.



Shuhrat HAYITOV,
Kinematografiya agentligining
kinoloyihalar bilan ishlash
boshqarmasi boshlig‘i,
filologiya fanlari doktori

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda mazkur sohani tubdan isloh qilish, milliy kinoni yangi bosqichga olib chiqish borasida keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda. Zero, yangi O‘zbekiston siyosatining ajralmas qismi sifatida kino orqali milliy ong va tarixiy xotirani mustahkamlash, ayniqsa, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida ahamiyat berib kelinmoqda.

Buxoro shahridan 10 kilometr shimoli-sharqdagi Qasri Orifon qishlog‘ida joylashgan Hazrat Bahouddin Naqshband ziyoratgohi nafaqat yurtdoshlarimiz, balki butun dunyo musulmonlari uchun tabarruk qadamjolardan. So‘nggi yillardagi islohotlar natijasida Bahouddin Naqshband maqbarasi qayta tiklandi. Majmuadagi daxma, maqbara, masjid, ayvonlar va madrasaning haqiqiy qiyofasi tiklanib, qutlug‘ qadamjoga aylantirildi.

Prezidentimizning joriy yil 21-apreldagi “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish hamda markazning asosiy vazifalari belgilab berildi. Farmonga muvofiq, joriy yil may oyida Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi va 2-iyundan amaliy faoliyat boshladi. E’tiborga molik jihati, shu qisqa muddatda hamkor tashkilotlar bilan birga xalqaro va respublika miqyosidagi yirik ilmiy-amaliy anjuman hamda bir qancha ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazildi.

MA’RIFAT AHLINI MAMNUN ETDI

Homidjon ISHMATBEKOV,
O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisining birinchi o‘rinbosari:

— Har bir el tarixiy merosi, ulug‘ ajdodlari bilan faxrlanadi. Xoja Bahouddin Naqshbandning ilmiy merosi nafaqat islom olamida, balki butun insoniyat ma’naviyatida alohida o‘rin egallaydi. Davlatimiz rahbarining tegishli farmonida belgilangan vazifalar yurtimizning jahon tamadduni beshigi sifatidagi tarixiy maqomini

Shu maqsadda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida milliy kino san’atini rivojlantirish, uning jamiyat ma’naviy-ma’rifiy hayotidagi o‘rnini kuchaytirish, vatanparvarlik ruhini mustahkamlashda strategik mamba sifatida shakllantirish vazifalari belgilab berilgan. Bugunga qadar kinematografiya sohasi bo‘yicha 228 ta qonunchilik hujjati, jumladan, Prezidentimizning 51 ta farmoni, 99 ta qarori, 11 ta farmoyishi, 58 ta yig‘ilish bayoni va Vazirlar Mahkamasining 9 ta qarori qabul qilindi. Bundan tashqari, sohani to‘g‘ridan to‘g‘ri tartibga soluvchi 21 ta normativ-huquqiy hujjat tasdiqlandi. Bu raqamlarning o‘ziyoq sohaga qaratilgan yuksak e’tibor va izchil siyosatning amaliy ifodasidir.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda kino sohasini tubdan isloh qilish, milliy filmlar soni va sifati, jumladan, tarixiy mavzuga bag‘ishlangan kinomahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish borasida ilgari surilayotgan tashabbuslar, qabul qilinayotgan qaror va farmonlar amaliy samara bermoqda. 2023-2025-yillarda 390 ta kinomahsulot yaratildi. Ular orasida 61 ta badiiy, 77 ta hujjatli, 26 ta animatsion, 88 ta qisqa metrajli film, 3 ta badiiy-publististik loyiha, 11 ta kinojurnal, 19 ta serial va 105 ta videorolik ishlangani sohaga nisbatan izchil yondashuv va tizimli rivojlanishning yaqqol dalilidir.

Kinematografiya orqali millatning boy va shonli tarixini teran ilmiy asosda badiiy ifodalash maqsadida “Tirik tarix” filmlar turkumi ishlab chiqildi. Bu dastur mamlakatimiz tarixini xolis, haqiqiy va zamonaviy kino tilida xalqimiz va jahon jamoatchiligiga yetkazishni maqsad qilgan ulkan medialoyihadir. Prezidentimizning 2024-yil 5-iyundagi “Kinematografiya sohasini yanada rivojlantirish hamda mamlakatimiz tarixiga bag‘ishlangan filmlar turkumini yaratishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan mazkur dastur doirasida 21 badiiy va 33 badiiy-publististik film yaratish rejalashtirilgan.



Ayni paytda “Tirik tarix” doirasida 50 dan ziyod film ustida ishlanmoqda. Ular orasida “Bahodir Yalango‘sh”, “Ajiniyoz”, “Maxtumquli Firog‘iy”, “Ulug‘ Amir va Donna Mariya” kabi filmlar allaqachon tomoshabinlar va kino mutaxassislari e’tirofiga sazovor bo‘ldi. Xususan, “Maxtumquli Firog‘iy” filmi Turkmanistonning Ashxobod shahrida bo‘lib o‘tgan “Qo‘rqut ota” IV xalqaro kinofestivalida “Eng yaxshi film” nominatsiyasi bo‘yicha oliy sovrinni qo‘lga kiritdi. Shuningdek, Turkiyada o‘tkazilgan II Turon xalqaro kinofestivalida “Eng yaxshi o‘zbek filmi” sifatida taqdirlandi. “Bahodir Yalango‘sh” filmi esa “Oltin humo — 2024” milliy kino mukofotining “Eng yaxshi film”i deb topildi. Bu film orqali tomoshabinlar ko‘nglida buyuk sarkarda, davlat arbobi va madaniyatimiz homiysi Bahodir Yalango‘sh siymosi mustahkam muhrlandi. Prezidentimizning 2024-yil 16-may kuni Kinochilari uyiga tashrifi, kinoijodkorlar bilan uchrashuvi, O‘zbekiston kino san’ati muzeyini ko‘zdan kechirishi kino sohasida navbatdagi

yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu tarixiy uchrashuvda “Tirik tarix” dasturining taqdimoti o‘tkazilib, kino orqali milliy g‘urur, tarixiy xotira va davlatchilik tafakkurini mustahkamlash maqsadi yana bir bor e’tirof etildi. Bu qaror va tashabbuslar asosida milliy kino sohasiga qonuniy, tashkiliy va moliyaviy poyyedvor yaratildi. Endi nafaqat filmlar soni, balki ularning mazmun-mohiyati, badiiy yechimlari, tarixiy xolisligi va ilmiy asoslanganiga ham alohida e’tibor qaratilayotir. Bugun “Tirik tarix” dasturidan o‘rin olgan filmlarni yaratish bo‘yicha ishlar yanada jadal davom etmoqda. Joriy yil oxiriga qadar Ikkinchi jahon urushi qahramoni, o‘zining betakror jasorati bilan xalq xotirasida muhrlanib qolgan yurtdoshimiz Mamadali Topvoldiyev haqidagi “O‘zbek arsloni (Kazbek)” filmi, shuningdek, buyuk shoir va xalq qahramoni Pahlavon Mahmud hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan “Xiva langari” filmi tomoshabinlar e’tiboriga havola etilishi rejalashtirilgan.

Qisqacha aytganda, yangi O‘zbekistonda adabiyot, tarix va kino sohalaridagi islohotlar xalqimizning ma’naviy yuksalishi, milliy o‘zligini anglashi, tarixiy xotirasini tiklashi va uni dunyo miqyosida namoyon etishda beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Bu keng qamrovli ishlar nafaqat mamlakatimizda, balki xalqaro maydonda ham yuqori baholanmoqda. Chunki har qanday millatning kimligi tarixi, adabiyoti va ma’naviyatiga qarab belgilanadi.

“Tirik tarix” dasturi doirasidagi filmlar mavzusi nafaqat mazmun jihatdan, balki xronologik ketma-ketlik va tarixiy qamrov nuqtayi nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Ular orqali xalqimizning ilk manzilgohlari, tosh davridan tortib, xumlar davri, Shiroq jasorati, Amir Temurning ulug‘ saltanati, Alisher Navoiyning ulkan ijodiy merosi va yuksak fazilati, jadidlar merosi, mustamlaka davri qabohatlari, mustaqillik orqali xalqimizga berilayotgan imkoniyatlar hamda eng yangi tarixgacha bo‘lgan yirik voqealar qamrab olinmoqda. Shuning o‘ziyoq dasturning miqyosi, maqsadi va ahamiyati qanchalik kengligini ko‘rsatadi. Prezidentimizning ushbu filmlarni har tomonlama mukammal va xolis tarzda yaratishga alohida e’tibor qaratayotgani ham ana shundan dalolat beradi.

Mazkur filmlarning tarixiy haqiqatlarga to‘liq muvofiq bo‘lishi uchun hozir Kinematografiya agentligi huzuridagi milliy komissiya va filmlarning g‘oyaviy-badiiy saviyasini oshirish bo‘yicha milliy kengash samarali faoliyat yuritmoqda. Har bir film yuzasidan maxsus nufuzli hay’at vakillari, tarixchilar va adabiyotshunoslar, kinoshunoslar va tahlilchilar jalb etilib, ssenariylar chuqur tahlildan o‘tkazilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti, Yozuvchilar uyushmasi, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

hamda boshqa ilmiy va ijodiy muassasalardan yetakchi mutaxassislar jalb etilmoqda. Shu bilan birga, filmlar xalqaro maydonda ham tanikli bo‘lishi uchun Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Turkiya, Hindiston, Xitoy, Janubiy Koreya kabi davlatlardan tanikli kinoijodkorlar, olimlar va kinooperatorlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Filmlarning yuksak badiiy va texnik saviyada yaratilishi, xalqaro kinofestivallarda munosib ishtirok etishi uchun hamkorlik doirasi tobora kengaymoqda. So‘nggi ikki yilda 204 ta kinomahsulot ishlandi.

Bundan tashqari, 2023-2025-yillarda 27 ta davlat va xalqaro tashkilot bilan hamkorlik shartnomalari hamda kelishuvlar imzolangan. Jumladan, 2025-yilning o‘zidayoq 16 ta davlat — Germaniya, Vengriya, Rossiya, Ispaniya, Janubiy Koreya, Ozarbayjon, Turkiya, Tojikiston, Hindiston, Pokiston, Yaponiya kabi mamlakatlar bilan qator filmlarni hamkorlikda ishlash bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Hozir bir nechta film xalqaro hamkorlikda tasvirga olinayotgani alohida e’tiborga loyiq. Jumladan, “Farhod va Shirin” — Xitoy, “O‘zbekiston arxeologik yodgorliklari”, “Sehrli ko‘za” — Rossiya, “O‘zbek arsloni (Kazbek)” — Belarus, “Ulug‘ Amir va Donna Mariya”, “Turkistonlik bahodirlar” — Turkiya, “Pomir tog‘laridek yuksak”, “Ahmad Yassaviy” — Qozog‘iston, “Maqsud Shayxzoda” — Ozarbayjon, “Xiva langari” — Hindiston, “Bobur va boburiylar” — Pokiston kinoijodkorlari bilan hamkorlikda suratga olinmoqda. Shuningdek, filmlarning qamrovli va geografik kengligi sababli TURKSOY va boshqa xalqaro tashkilotlar ham loyihalariga jalb etilgan.

Davlatimiz qo‘llab-quvvatlayotgan ushbu filmlar Vatanimizning shonli va shuhratli o‘tmishini, xalqimizning jasoratida matonatin, Turon zaminida yuzaga kelgan buyuk davlatlarning tarixiy yo‘lini, millat va elatar madaniyati, san’ati va adabiyotini xolis va haqiqiy yoritishda muhim o‘rin tutmoqda. Yangi O‘zbekistonda kino san’ati davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi xalqimizning tarixiy xotirasi qayta uyg‘onishiga sabab bo‘lmoqda.

Xususan, aksar yoshlar Bahodir Boyxo‘ja o‘g‘lini uzoq yillar Samarqandning Registon maydonidagi Sherdor va Tillakori madrasalarining asoschisi sifatida tanigan. “Bahodir Yalango‘sh” filmi esa ularning Samarqand hokimini qayta kashf etishiga imkon berdi. Bu kabi misollar talaygina. Mazkur filmlar tufayli yosh avlod qalbid Vatanga muhabbat, milliy g‘urur va tarixiy o‘zlik tuyg‘usi mustahkamlanib bormoqda. Bu jarayonda “Tirik tarix” kabi medialoyihalar muhim o‘rin tutadi.

Milliy kino — milliy rivojlanishimizning oynasi desak, xato bo‘lmaydi. U orqali o‘tmishga nazar tashlash, bugunni anglash va kelajakni barpo etishga xizmat qiluvchi ma’naviy kuch shakllanmoqda.



INSONPARVARLIK G‘OYALARI TARG‘IBOTI MARKAZI

tiklash bo‘yicha islohotlarga yangicha ruh bag‘ishladi. Ushbu muhim hujjatda Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etishga oid qator muhim vazifalar belgilangani ilm-ma’rifat ahlini cheksiz mamnun etdi. Ulug‘ ajdodimizning boy merosini yanada chuqur o‘rganish bugun ilmiy jamoatchilik oldida turgan muhim vazifalardan. Bahouddin Naqshband va naqshbandiylik tariqati allomalarining insonparvarlik g‘oyalarni o‘rganish, yosh avlodni bag‘rikenglik hamda o‘zaro hurmat ruhida tarbiyalash maqsadi targ‘ibot ishlarini yanada kuchaytirishni talab etadi. Tasavvuf ta’limoti doirasida shakllangan umuminsoniy qadriyatlar, odob-axloq mezonlari, Vatanga muhabbat, buyuk ajdodlarga ehtirom tuyg‘usini insonlar ong shuuriga singdirish, buzg‘unchi yot g‘oyalarga qarshi kurashda ilmiy-tadqiqot markazining o‘ziga xos o‘rni bo‘ladi.

IMKONIYAT MANBASII

Azizxo‘ja INOYATOV,
Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot markazi direktori:

— Naqshbandiya yur yuzida eng keng tarqalgan tariqat bo‘lib, dunyodagi millionlab mo‘min-musulmonlar unga amal qiladi. Shu sababli Bahouddin Naqshband maqbarasini ziyorat qilish uchun butun jahondan ziyoratchilar Buxoroga keladi. Prezidentimizning tegishli farmoni asosida yana bir ilmiy-tadqiqot markazining ochilishi juda katta voqea bo‘ldi. Ilmiy-tadqiqot markazi respublika tashkiloti maqomidagi muassasa sifatida joriy yil iyunda faoliyatini boshlab yubordi. Farmonda belgilab qo‘yilganidek, Bahouddin Naqshbandning insonparvarlik g‘oyalarni

ilmiy asosda o‘rganish, tasavvuf ta’limoti tarixi va bugungi ahamiyatini ilmiy tadqiq etish, “Yetti pir” allomalari va aziz-avliyolarning boy ilmiy-ma’naviy merosini xalqaro maydonda keng targ‘ib qilish markazining asosiy vazifasidir. Naqshbandiylik ta’limotining ezgu g‘oyalarni tadqiq etish uchun ilmiy-nazariy va uslubiy masalalarga bag‘ishlangan xalqaro anjumanlarni tashkil etish, seminar-trening, madaniy-ma’rifiy tadbirlarni yuqori saviyada o‘tkazish ham markaz vazifasiga kiradi. Hali oldimizda qildigan ishlarimiz, dunyo olimlari hamjihatligida o‘tkazadigan tadqiqotlarimiz, reja va maqsadlarimiz juda ko‘p. Asosiysi, yangi markaz dunyo olimlariga Bahouddin Naqshband ilmiy merosini o‘rganish orqali yirik tadqiqotlar qilish uchun keng imkoniyat manbasi hamdir.

EZGULIKKA CHORLAYDIGAN YO‘L

Abdulkarim bin Said Xadaid,
Jahon so‘fiylar markazi bosh kotibi:

— Buxoro shahri asrlar davomida ma’naviyat va ma’rifat beshigi, tasavvuf va ilm markazi sifatida tanilgan. Shu ma’noda, naqshbandiya ta’limoti va tariqatini asoslagan tabarruk inson Bahouddin Naqshband hazratlarining yashagan makoni va qabrini ziyorat qilish katta saodatdir. Bugun dunyoda mazkur ta’limotning 60 milliondan ortiq izdoshi bor. Prezidentingiz farmoni bilan Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilishi va markazning Bahouddin Naqshband hazratlari ziyoratgohi hududida joylashgani nihoyatda go‘zal ish bo‘ldi. Chunki u zotning asarlari nafaqat urfonga oid, balki ijtimoiy, axloqiy va madaniy

Boqiy meros



sohalarda ham mustahkam asosga ega. Hazrat Naqshband merosi xalqaro miqyosda e’tirof etilib, uning tadqiqi turli tillarga tarjima qilinayotgani va dunyo ilmiy jamoatchiligi orasida qiziqish uyg‘otayotgani buning isbotidir. Bu meros har bir insonni kamtarlik, poklik, adolat va ezgulikka chorlaydigan mustahkam yo‘ldir.

ENG YIRIK QADAMJOLardan BIRI

Jobir ELOV,
Buxoro viloyati bosh imom-xatibi:

— Bundan yetti asr avval Buxoro shahri yaqinidagi Qasri Orifon qishlog‘ida dunyoga

kelgan Bahouddin Naqshband naqshbandiya tariqatining asoschisi bo‘ldi. U butun hayoti davomida juda kamtar va oddiy hayot tarziga amal qilgan. Olimning hayoti va merosi islom ma’naviyatining yuksak namunasi sifatida qadrlanadi. Ziyoratgohga bir yilda 500 mingga yaqin ziyoratchi tashrif buyuradi. O‘tgan yili Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim janobi oliylari Buxoroga tashrifi davomida “Hazrat Bahouddin Naqshband-ga bizda millionlab ergashuvchi izdoshlar bor, agar bu yerlarda yaxshi imkoniyatlar bo‘lsa, ilmiy tadqiqotlar olib borilsa, asarlari o‘rganilsa, naqshbandiylik ta’limotini yoshlarga to‘g‘ri talqin qila oladigan mutaxassislar doirasidagi davra suhbatii

va konferensiyalar o‘tkazilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi”, deya taklif bildirgan edi. Chindan ham naqshbandiya tariqati eng ko‘p yoyilgan tariqatlardan bo‘lib, millionlab mo‘min-musulmonlar ergashadi. Shu bois, Bahouddin Naqshband ziyoratgohi dunyodagi eng yirik qadamjoldardan biri deya tan olingan.

2024-yil may oyida Prezidentimiz Buxoroga tashrifi chog‘ida Bahouddin Naqshband me’moriy majmuasida yangidan qad rostlagan Toqi miyona darvozasi, Doniyolbiy madrasasi va maqbarasini borib ko‘rdi. “Yuz yil vayron bo‘lib yotgan bu darvozani tiklaganimiz — o‘zligimizni anglash va buyuk tariximizga hurmatimiz ifodasi. Endi bu yerdagi har bir obidaga, xonlar daxmalariga bitiklar yozib qo‘yish kerak. Ziyoratga kelganlar qadam-baqadam tarixni o‘rganib, ma’naviy ruh olsin”, degan hayotbaxsh so‘zlarni aytdi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Bahouddin Naqshband me’moriy majmuasidagi qadimgi darvozalar Toqi miyona, Xoja Dilorav, Bob us-salom asl holiga keltirildi. Bahouddin Naqshbandning onasi Orifabibi ziyoratgohi ham butunlay go‘zal qiyofa kasb etdi. Majmuadagi madrasaning haqiqiy ko‘rinishi ko‘rkamlashib, qutlug‘ qadamjoga aylantirildi.

Ziyoratgohning Toqi miyona darvozasidan boruvchi tarixiy yo‘lakning tiklangani ziyo-ratchilar uchun Bahouddin Naqshband maqbarasiga qibla tarafdin yurib borishga keng sharoit yaratib berdi. Darvozaning ikki yoni boqqa aylantirilib, muzey va tasharotxona barpo etildi. Bahouddin daxmasi atrofidagi ayvon o‘z o‘rnida qayta qurildi va ziyoratchilar uchun barcha sharoit yaratildi. Ayni paytda ushbu qutlug‘ qadamjoda tashkil etilgan Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot markazi nafaqat O‘zbekistonda, balki butun islom olamida naqshbandiya ta’limotining zamonaviy ta’lim va ma’naviy tarbiyadagi o‘rnini chuqur yoritish, naqshbandiylik ta’limotini global miqyosda keng targ‘ib va tadqiq qilish hamda ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri